

**Ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish ta'lim rivojining
ustunidir**

*Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat
asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabalari*

Safaraliyeva Shoxsanamxon Lazizbek qizi va

Ne'matova Sarvinozxon Nizomjon qizi

Annotatsiya. Bugungi kunda hech bir sohani axborot texnologiyalarisiz, kompyuterlarsiz, dasturlashgan tizimlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Xususan, ta'lim sohasida raqamli texnologiyalarning o'rni alohida. Maqolada ta'lim yo'nalishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari va ahamiyati xususida fikr-mulohazalar bayon etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, axborot, axborot texnologiyalari, dasturlashgan tizim, texnologik ta'lim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishishi uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi bu yuksalishning eng qisqa yo'nalishidan borish imkoniyatini beradi. Bugungi kunda Oliy ta'lim tizimida texnologik ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarda sanoatlashgan mamlakatlarda ta'lim olishi, yashashi va ishlashi uchun zarur ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi dastlabki yillaridayoq ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, yosh avlodga jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishni, yetuk inson bo'lib shakllanishi, qobiliyat va iqtidorini yuzaga chiqarish asosiy maqsad qilib belgilab olindi. Shu jihatdan mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek " Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib kelmoqda. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishni juda yaxshi bilamiz".

Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashda talabalarni faqatgina ekrandagi axborotlarini ko'rishga va ularni qabul qilishgagina emas, balki ularning o'zlari ham bu jarayonda ijodiy ishtirok etishlariga o'rgatishimiz lozim. Tadqiqot usullari sifatida oliy ta'limda raqamli texnologiyalarni joriy etishga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirishga tegishli xulosalar tuzishda normativ hujjatlarni, mavjud bo'lgan amaliyotni o'rganish, tizimlashtirish va umumlashtirishdan foydalanildi. Yurtimizdagi nufuzli o'quv markazlari ham zamon talabidan kelib chiqqan holda onlayn ta'limni yo'lga qo'ydi. Bu jarayonning o'zi ham mamlakatimiz ta'lim tizimida yangi bosqich boshlanganligini anglatadi.

Hozirgi jamiyatni raqamlashtirish davrining ijtimoiy -pedagogik muammolarini ta'lim tizimi va uning tarkibiy tuzilmasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu nafaqat ta'lim subyektlari, balki uning makonini ham tubdan o'zgartirish talab etiladi. Mahalliy ta'limning o'zgarishi ta'lim mazmuni va uning tizimini o'zgartira oladigan axborot muhitining ta'siri bilan bog'liq bo'lib, biroq bu hanuzgacha istiqloldagi ijtimoiy -pedagogik vazifalar kontekstida hisobga olinmagan. Bugungi kunda ta'limdagi raqamli transformatsiyaning ustuvor yo'nalishlari va maqsadlari har bir bolaning muvaffaqiyatini va raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan ommaviy yagona ta'limdan individual ta'limga o'tish sifatida belgilab qo'yilgan. Shu nuqtai nazardan mamlakatimizda yangi raqamli ta'lim muhitini yaratish yuzasidan bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yilning 6-oktyabrdagi PQ4851-sonli "Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qarori asosida "Raqamli O'zbekiston - 2030" integratsiyasini amalga oshirish, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish va aholi kundalik hayotiga keng joriy etishni ta'minlashning muhim shartlari va u bilan bog'liq jarayonlar belgilab

beriladi. Ta'lim tizimini isloh qilishning muhim yo'nalishlaridan biri - axborot kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bilan ta'lim jarayonini tizimli integratsiyalash va uni boshqarish hisoblanadi. Islohatlar jarayonida bosh vazifa qilib o'quv jarayonini tashkil etish, uning mazmunini tubdan yangilash, raqamli texnologiyalarni qo'llash, kompyuterlashgan muhitda o'qituvchining pedagogik faoliyati va o'quvchilarning bilim olish jarayonini tashkil etish belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida axborot texnologiyalarini ta'lim tizimida qo'llashni umumlashtirib shuni ta'kidlab o'tish mumkinki, bugungi kun auditoriyalari o'n yil avvalgilaridan juda katta farq qiladi va sinf xonalari kompyuterlar, iPad, planshetlar, smart-doskalar va boshqa turdagi ta'lim texnologiyalari bilan jihozlangan. Dunyoning boshqa joylarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham raqamli avlodning yangi ekranli avlodi- televizor, kompyuter, planshet, fablet, smartfon va smartsoatlari paydo bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi hozirgi tendensiyada davom etsa yaqin yillar ichida insonlar hayot tarzida keskin o'zgarishlar bo'lishi mumkin. Bu esa barcha sohalarning yanada mobil bo'lishini va kadrlar bilim va salohiyati jamiyat talabiga javob bera olishini ta'minlaydi. Raqamli iqtisodiyot butun dunyoni qamrab olishi tufayli, axborotlashtirish va raqamlashtirishga oid har qanday davlat loyihasi kompleks ravishda hamda yagona kodlash tizimi, iqtisodiy va boshqaruvga aloqador axborotni aniqlash asosida o'rganilishi lozim.

Yuqorida keltirilgan takliflarning amaliyotga joriy etilishi, nazarimizda, O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda ta'lim tizimini boshqaruvining yuksalishiga imkoniyat yaratib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28- yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini tasdiqlash terisidagi" PF-60-son Farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020- yil 24-yanvarda Oliy Majlisga yo'llagan murojaatnomasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O'zbekiston - 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora - tadbirlari to'g'risidagi" Qarori.

4.o'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori,2020-yil 17- martdagi PQ-4642-sonli.